

DESTRUKTIV XULQ-ATVOR KO‘RINISHLARINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sayfulloyev Qodirjon Botir o‘g‘li
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Psixologiya (faoliyat turlari) mutaxassisligi magistranti
Ilmiy rahbar:Psixologiya fanlari nomzodi,
dotsent **Z.E.Abduraxmanova**
https://doi.org/10.5281/zenodo.14637135

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 3-yanvar 2025 yil
Ma’qullandi: 5-yanvar 2025 yil
Nashr qilindi: 13-yanvar 2025 yil

Destruktiv xulq, deviant xulq, delinkvent xulq, biologik nazariya, destruktiv ustanovka.

ABSTRACT

Ushbu maqolada shaxs og‘ishgan xulqining ko‘rinishlari hamda ularning tavsiflari, turlari, xulqiy-og‘ishlarning salbiy oqibatlari va ijtimoiy me’yor ko‘rinishlari kabi yetakchi mezonlar ochib berishga harakat qilingan.

Insonning ijtimoiylashuvi su’niy xarakter kasb etib, u shaxs sifatida boshqa insonlar o‘rtasidagina shakllana oladi. Agar u insoniy munosabatlardan holi bo‘lsa, o‘zidagi yovuzlik yoki hayvoniy tabiatidan xalos bo‘la olmaydi. Insondagi bu tabiiy xususiyatni Abu Nasr Farobiy quyidagicha ifodalaydi: “Har bir inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi.

Jamiyat hayotida yoshlar tomonidan sodir etiladigan barcha xatti-harakatlar jamiyat a’zolari tomonidan ikki xil, ya’ni ijobiy va salbiy baholanishi mumkin. Bugungi kunda yoshlar jamiyatning asosi va uning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadigan kuchdir. Yoshlarning ma’naviy va jismonan barkamol yetukligi davlat qudratining belgisidir. Ammo bugungi globallashuv davrida jamiyat hayotida ta’lim va tarbiya uyg‘unligini ta’minlash juda murakkabdir. Buning sababi ijtimoiylashuv jarayoniga ta’sir qiluvchi ijobiy va salbiy kuchlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Globallashuvning salbiy tomonlari, axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi jamiyat madaniyati, ma’naviyati, axloq me’yorlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jamiyat hayotida vujudga kelayotgan salbiy g‘oyalar yoshlar ongida yoyilmoqda va o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda va natijada yoshlar ongida salbiy o‘zgarishlar va xatti-harakatida og‘ishlarni vujudga keltirmoqda. Eng katta qamrovga ega bo’lgan deviant xulq-atvor shular jumlasidandir.

Deviant Xulq-Atvor Tushunchasi, Turlari (Delikvantlik)

-jamiyatda mavjud ijtimoiy me‘yorlardan chetga chiqish holatlarini- deviant xulq atvor sotsiologiyasi o‘rganadi

-amiyatda o'rnatilgan axloq me’yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki hatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo‘lib, yolg‘onchilik, dangasalik, o‘g‘irlik, ichkibozlik, giyohvandlik, o‘z joniga qasd qilish kiradi.

Deviatsiya (lotincha chetga og‘uvchi fe’l-atvor degan ma’noni beradi) ko‘pgina hollarda sotsial sanktsiyalarga muhtoj bo‘ladi. Deviant xulq-atvor jamiyatda o‘rnatilgan axloq me’yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo‘lib, yolg‘onchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o‘z joniga qasd qilish va boshqalardir. Deviatsiyaning shunday ko‘rinishlari borki, ular odamlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlar normalarining buzilishi bilan

bog'liq bo'lib, jamiyatga jiddiy zarar yetkazmaydi. Ular ijtimoiy fikr va o'zaro munosabatlar qatnashchilarining o'zlari tomonidan boshqariladi. Shaxs bu insonning jismoniy tabiati emas, balki uning ijtimoiy sifatidir.Shaxs ehtiyojlari uning manfaatlari orqali namoyon bo'ladi. Manfaatlar esa uni maqsadli faoliyatiga yo'llaydi. Kishilarning ijtimoiy munosabatlari ularning xulqlarida ,eng avvalo manfaatlar tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida shaxs faoliyatining maqsadini, mazmuni va mohiyatini ifodalaydi.

Deviant og'ishish, odob-axloq normalaridan og'ish;

Delekvent xulq-atvor, huquq normalarining unchalik sezilarli bo'lmagan darajada buzilishi;

Jinoiy xulq-atvor, jinoiy huquq normalarining jiddiy ravishda buzilishi;

Deviant xulq-atvor har bir davrning o'ziga xos muammosi hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir sotsiolog bu xulq-atvor turini o'rganib, o'zlarining ilmiy qarashlarini bildirib o'tgan. Deviant xulq-atvorning madaniy jihatlari asoschisi Y.I.Gilinskiy ushbu atamani muomalaga kiritdi. Shunday bo'lsada ilk tadqiqotlar boshida E. Dyurkgeym turadi. Bugungi kunga kelib esa deviant xulq-atvor muammolari tadqiqotchilari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, deviant xulq-atvorning asosiy shakllari sifatida Y.I. Gilinskiy va V.S. Afanasevlar quyidagilarni keltirib o'tishadi: ichkilikbozlik va alkogolizm; narkomaniya; jinoyatchilik; o'z joniga qasd qilish; gomoseksuallik.

Deviantni guruh yoki jamiyatda ko'pchilik odamlar tomonidan qabul qilingan me'yor va me'yorlar yig'indisiga mos kelmaslik deb aytish mumkin. Chunki, xulq atvorning umumiy qoidalarini ko'pchiligimiz buzamiz. Ko'pchilik kichik o'g'irliklar, masalan, do'kondan biror narsaga haq to'lamay shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanish uchun olib ketish hollariga yo'l qo'yganmiz.

Deviant xulq-atvorning nisbatan keng tarqalgan shakllari:

- Jinoyatchilik-muayyan davlatda o'rnatilgan qonun va me'yorlarga nisbatan

ayrim shaxslarning salbiy munosabati jinoiy faoliyat, mazkur shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi.

- Deviant xulq-atvorning nisbatan keng tarqalgan shakllari:
- Ichkilikbozlik. Bu borada ilmiy adabiyotlarda bir necha tasniflar mavjud:
- 1.Alkogolni har-har zamonda iste'mol qilish.
- 2.Alkogolni ko'p iste'mol qilish —spirtli ichimliklarni muntazam, ya'ni

haftada bir martadan bir necha martagacha yoki birvarakayiga o'rtada tanaffus bilan ko'p mikdorda (200 ml.dan oshiq). Bu ko'pincha alkogolizmga olib keladi.

- 3.Alkogolizm —spirtli ichimliklarga patologik (muttasil) o'rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik.
- Susid.
- Giyohvandlik-Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga muntazam ruju qo'yish va tibbiy ko'rsatmalarsiz iste'mol qilish.

E.Dyurkgeymning ta'kidlashicha deviant hulq jamiyatda me'yoriy nazorat

susayganda yuzaga keladi. R.Mertonning nazariyasida esa, jamiyatda ma'naviy qadriyatlar inson tomonidan ob'ektiv ravishda qabul qilinmay, qadriyatlar tizimi yemirilishni boshlaganda vujudga keladi. Ijtimoyilashuv jarayonida deviant xulq -atvorga oilada va o'smirning atrof-muxitida yetakchi bo'lgan tarbiyaviy holat asos solinadi. Byuler jismoniy pubertat bilan bir katorda psixik pubertatni xamda uning ichidagi 3 ta fazani ajratdi. Birinchisi bu psixik pubertatlikning arafasi bo'lib, 11-12 yoshli o'smirda quyidagi alohida belgilar paydo bo'ladi: beboshlik, urushqoqlik, bolalar o'yinlari unga kizik ko'rinmaydi, o'zidan kattaroq o'smirlarning o'yinlari esa tushunarsiz bo'ladi.

Insondagi destruktiv xulq tabiati hozirga qadar psixologiya fanida hali yaxshi o'rganilmagan muammolardan biri sanaladi.

Bu muammo 20-asrning o'rtalarida shakllangan. Psixologik yondoshuv shaxsning og'ishgan xulqidagi alohida ko'rinishlarini ijtimoiy-psixologik tafovutini ajratishga asoslangan. Psixologik tasniflar quyidagi mezonlar asosida quriladi:

•buzilgan me'yor turi;

•axloq va uning motivatsiyada psixologik maqsad;
•ushbu axloq oqibati va u keltirgan zarar;
•axloqning shaxsiy-uslubiy tavsifnomasi.

Shuni ta'kidlash zarurki, “Og‘ishgan xulq” atamasini 5 yoshdan kichik bo‘lmagan bolalarga nisbatan qo‘llash mumkin, qat'iy ma'noda esa 9 yoshdan keyin qo‘llashimiz mumkin. 5 yoshdan oldin bolaning ongida ijtimoiy me’yorlar haqidagi zaruriy tasavvurlar bo‘lmaydi, o‘z-o‘zini nazorat qilish esa kattalar yordamida amalga oshiriladi. Faqat 9-10 yoshidagina bolada ijtimoiy me’yorlarga mustaqil rioya qilish qobiliyatining mavjudligi haqida gapirish mumkin.

Agar 5 yoshdan kichik bo‘lgan bolalarda axloqi yosh me’yoridan ahamiyatli tarzda og‘sa, bunda uni yetilmaganlikning, asabiy reaksiya yoki psixik rivojlanish buzilishining bir ko‘rinishi sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Destruktiv xulq bolalikdagi salbiy emotsional kechinmalar, ota onaning bolaga nisbatan emotsional sovuqqonligi natijasida zarur vaqtlarda ulardan yetarli darajada mehr-muhabbatga ega bo‘lmaganligi, nasliy omillar bo‘lishi ham mumkin. Z.Freyd inson xulqida 2 ta asosiy instinkt borligini ta’kidlaydi: Eros - bu hayot isntinktidir. Undagi quvvat, hayotni saqlash, qayta tiklashga yo‘naltiradi. Tanatos – o‘lim instiktidir. Undagi quvvat hayotni vayron qilish va to‘xtatishga yo‘naltiradi. Destruktiv xulq barcha insonlar uchun xosdir. Ayrim insonlarda bu xulq shunchalik kuchliki, ularning jamiyatdagi o‘rnini va xulqini belgilaydi.Destruktiv xulq ko‘rinishlarini namoyon bo‘lishida negativ ustanovkalar -shaxsning atrofdigilarning aksariga nisbatan salbiy munosabatlari natijasida shakllanadi Biz shaxs og‘ishgan xulqining turli ko‘rinishlari ikkita - o‘ziga yoki boshqalarga qarama-qarshi yo‘nalishli “destruktiv axloq”ning yagona o‘qida joylashganini ko‘ramiz. Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu -oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog‘lom oila muhitining o‘rni kattadir. Bola tug‘ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi.

Oilaga xos an’analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi. Jamiyat a’zolari shaxsiy nuqtayi nazarlarining shakllanishiga, ularning deviant xulq-atvorga nisbatan ijtimoiy faol munosabatlarining tarkib topishiga tarbiyaviy jarayonlar uchun bevosita mutasaddi shaxslar, tashkilotlar rahbarlarining o‘rni va roli kattadir. “Ba’zilarga mumkin, boshqalarga mumkin emas”, “hozir yaxshi, ertaga yomon” va shu kabi munosabat holatlarining ikkilamchi fe’l-atvor shaklida, ya’ni parallel stan
dartlar yo‘nalishida amal qilishiga izn berish juda xavflidir. Shu boisdan, har qanday holatlarda ham mansabdor shaxslar, turli jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalarining rahbarlari, pedagog va tarbiyachilar, qonunni himoya qiluvchi tashkilotlar vakillarining xulq-atvor me’yorlarini buzishi qat’iy qoralanadi.

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o‘z-o‘zini o‘ldirishlar bilan bog‘liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va sotsial oqibatlariga ko‘ra mohiyatan farqli jihatlarga egadir. Birinchi farq, ijtimoiy zararli odatlarning uzoq davom etishi deviant xulqi turmush tarzining uzviy bo‘lagiga aylanib ketishidan iborat bo‘ladi. Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof-muhitdan norozilik, uydagi tushunmovchiliklar va hokazolar — bularning barchasi sub’ekt ruhiyatini jarohatlaydi hamda u mavjud vaziyatni o‘zgartirishga urinadi. Jamiyatda insonlar faoliyati, xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini ijtimoiy me’yorlar boshqaradi. Destruktiv xulq-atvorni bartaraf etish, ijtimoiy me’yor jamiyat boshqaruvining ijralmas qismi bo’lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan ijtimoiy muhitga moslashtiruvchi qoidalarga amal qilinishiga erishib borishimiz kerak.

Ilm-ma’rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma’naviy poklik, kattalarga hurmat kichiklarga izzat, qadriyatlarimizga sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz millatimizning qonida bo‘lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak. Qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos va ta’sirchan, bugungi kunga hamohang usullarini izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va

zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma’naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz aziz yoshlar faol bo‘lishingiz kerak.

Xalqimizning ma’naviy qudrati va boqiy an’analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz» - dedi Sh.M. Mirziyoyev. Yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilik bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, deviant xulq-atvorga ega bo‘lgan yoshlarning qariyb 85%i maktabda tarbiyalangan. Bu sohada amerikalik tadqiqotchilar oilaviy hayotdagi noqulay deb belgilovchi 4ta asosiy omilni aniqladi:

- o‘ta qattiq otalik intizomi (qo‘pollik, isrofgarchilik, tushunmovchilik)
- onalik nazoratining yetarli emasligi (befarqlik, beparvolik)
- otalik va onalik mehrining yetarli emasligi (sovuqlik, dushmanlik)
- oilada hamjihatlikning yo‘qligi (janjal, dushmanlik, o‘zaro dushmanlik)

Bu omillarning barchasi bolaning oilaning oilada ijtimoiylashuv jarayoniga va pirovardida deviant xulq-atvorli shaxsni tarbiyalashga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Atrof-muhitning ta’siri deviant xulq-atvor vujudga kelishida katta rol o‘ynaydi. Chunki individ shaxs bo‘lib yetishishi uchun atrof-muhit bilan bevosita bog‘lanib turadi va shaxslararo munosabatlar orqali moslashadi. Jamiyatda o‘rnatilgan normalar va ijtimoiy nazoratning to'g‘ri tashkillashtirilgani yoshlarda ushbu xulq-atvor rivojlanishi uchun himoya vazifasini o‘taydi.

Texnika texnologiyalar asrida biz yoshlarimizni dunyodan uzib qo‘ya olmaymiz, balki ushbu dunyoga madaniyatli, ma’naviy immuniteti yuqori bo‘lgan yoshlarni tarbiyalab berishimiz mumkin. Shunday qilib, deviant xulq-atvorli yoshlar jamiyat «kasalligi», “og‘ir nuqatsi”, desak bo”ladi.

Bu “kasallik” insonning yetuklik davriga tez yuqadigan kasallik hisoblanibayniqsa o‘smir yoshdagilarga boshqalarga nisbatan tez yuqib, butun jamiyatni oxir-oqibat yo‘q qilish xususiyatiga ega bo ‘lgan kata hamda xavfli dushandir. Bu dushmanga tobe bo‘lmaslik uchun yoshlarni bu kasllikka nisbatan imunitet hosil qilishlari uchun oilada, MTM da, maktab va mahalla hamkorligi ishlari samaralidir. Oqilona yuritilayotgan siyosat va islohotlar bu muammoning avj olishiga mustahkam devor bo‘la oladi deb o‘ylaymiz.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Deviant xulq-atvor psixologiyasi” L.M.Xakimova.Toshkent 2014.
2. “O‘smirlik davrida psixopat buzilishlarini tadqiq qilish”G.K.To‘laganova.
3. “Yoshlar sotsiologiyasi”o‘quv qo‘llanma.
4. "Umumiy sotsiologiya " o‘quv qo‘llanma.
5. Abduqodirova D., Pardaboyeva M. THE ROLE OF EMOTIONAL CREATIVITY IN STUDENTS'DECISION-MAKING //INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES. – 2024. – T. 1. – №. 7. – C. 27-30.
6. Abdusamatova, S. (2023). Some aspects of self-development and self-knowledge, and effective assessment methods. Science and innovation, 2(B5), 420-423.
7. Sh.Umarova 2024. Psychological Features Of Workers And Factors Affecting Them. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*. 2, 9 (Sep. 2024), 52–63.
8. X.Raximova 2024. Current Role And Requirements Of Digital Pedagogy. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*. 2, 9 (Sep. 2024), 38–51.
9. Zukhra Mirzotilloyevna Radjabova. (2023). Features Of Adolescent And Teacher Cooperation In The Current Period In Choosing A Profession. Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 1(3), 210–215. Retrieved from https://academiaone.org/index.php/2/article/view/131
10. Ozodqulov, O. . (2024). VATANPARVARLIK RUHINI TALABALARDA RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Центральноазиатский журнал

академических исследований, 2(10 Part 2), 37–41. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/cajar/article/view/38469
11. Zilola Dilmurodova. (2024). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL NATURE OF ABILITY. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 27, 1–4. Retrieved From https://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/1092
12. Avlayev, O.; Mirqosimova, H. (2023). O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish qobilyatini o'rganish usullari. Maktab va hayot, 3(157), 4-7.10.
13. Saodat, Y. (2023). Clarification of professional awareness in future educators. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 185-188.11.
14. Samarova, S. R. (2024). Features of personality and professional abilities of a teacher of a preschool educational organization. European Science Methodical Journal, 2(6), 393-397.
15. Norova,N.O.,&Bekmatov,B.D.(2021).Etnikpsixologiya va milliy psixologik qiyofa. Academic research in educational sciences, 2 (12), 1262-1270.
16. Burteshova,A.B. (2023). Agresiv hulq atvorning gender farqlari. Перспективыразвития, 1 (1),354-360.12.
17. Абдурасулов , Ж. 2024. ҲАРБИЙ ЖАМОАНИНГ ПСИХОЛОГИК АСПЕКТЛАРИ. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*. 2, 2 (фев. 2024), 59–65.
18. Жўраев , Ш. ., & Абдурасулов , Ж. (2024). ҲАРБИЙ ЖАМОАДАГИ ИЖТИМОИЙ ФИКР. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 1(2), 97–103.

INNOVATIVE ACADEMY